

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 6



IMFAKTOR
PAGES

JUNE | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-6>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарров Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Филология фанлари

TILLABOYEVA Gulruh Soxibbek qizi

Farg'ona davlat universiteti

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8003347>

RUS LIBOSLARINING KELIB CHIQISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rus liboslarining kelib chiqish bosqichlari ilmiy jihatdan tadqiq etligan.

Kalit so'zlar: kiyim-kechak, silueti, ko'krakpech, zig'ir, jun, shoyi.

ТИЛЛАБАЕВА ГУЛРУХ Сохиббековна

Ферганский государственный университет

преподаватель

ИСТОКИ РУССКОЙ ОДЕЖДЫ

АННОТАЦИЯ

В этой статье научно исследованы этапы происхождения русской одежды.

Ключевые слова: одежда, силуэт, грудь, лен, шерсть, шелк.

TILLABOYEVA Gulruh Sohibbek kizi

Fergana State University

teacher

ORIGIN OF RUSSIAN DRESSES

ANNOTATION

In this article, the stages of the origin of Russian dresses are scientifically researched.

Keywords: clothing, silhouette, chestpiece, linen, wool, silk.

Madaniy va iqtisodiy jihatdan Novgorod, Kiyev va Smolyensk sharqiy slavyanlarning eng rivojlangan shaharlari edi. Bu shaharlar janubda yunon shaharlari va Vizantiya bilan hamda shimoldagi Skandinaviya davlatlari bilan savdo qilib turar edi. X asrda Kiyev Rusi - rus, belorus, ukrain xalqlari madaniyatining vatani, ayniqsa, yuqori rivojlanish darajasiga erishgan edi. Rus davlatiga bu davrda xristianlikni qabul qilish bilan birga yozuv ham kirib keladi. Kiyev Rusining gullab-yashnagan davri boshlanadi [1].

Lekin XIII asrda mo'g'ul-tatarlarning bosqinchilik urushlari tufayli madaniyatning yanada yuksalishi to'xtab qoldi. Bu davr rus xalqining taqdirida juda og'ir o'tdi. Uning oldida parcha-parcha bo'lgan knyazliklarni yagona kuchli, barqaror davlatga birlashtirish vazifasi paydo bo'ldi [2].

Rus davlatida xristianlik qabul qilinganidan keyin (X asrda) bemalol yuriladigan, lekin unchalik keng bo'lmagan kiyimlar tarqaladi. Kiyimlarning silueti juda oddiy edi. Bu davrda kiyimlar issiq mo'ynali bo'lgan. Kiyimdagi sinfiy farqlanishi matolarning sifati hamda bezaklarning boyligida namoyon bo'lar edi. Rus kostyumining o'ziga xosligi iqlimning qattiq sharoitlari bilan belgilab berilgan [3].

Qadimiy nazmiy bitiklardagi tasvirlar go'zal slavyan ayolining obrazini yetkazgan. Ayollar o'zining oq yuzlari, yonoqlari qizil lolaqizg'aldoqdek yonib turishi; ko'zlari ko'k va to'q rangli qoshlari, mag'rur qomati va sokin yurishi uchun qadrlanar edi. Ayollar kiyimining asosi ko'ylak edi. Ayollar odatda ustma ust ikkita ko'ylakni kiyar edilar. Ichki ko'ylak yoqa o'mizi oldi to'g'ri kesilgan, ingichka jiyak bilan ishlov berilib, tizimchalar bilan bog'lanib yoki tugma bilan qadalar edi [4].

Ko'ylak tovonigacha uzun bo'lib, yumshoq burmalar bilan burmalanar edi. Erkak ko'ylagidan u uzunligi bilan ajralib turar edi. Ustki ko'ylak - xuddi ichki ko'ylak kabi bichiqda bo'lib, alohida hollarda kiyilar edi. Barcha avvalgi kiyimlar, jumladan ponyeva va zaqiyiqning ustidan kiyiladigan bayramona kiyim ko'krakpech edi [5].

Ko'krakpech - kaltaroq, beli bog'lanmaydigan, kalta keng yengli kiyim edi. Ayollar yenglari erkaklamikidan kengroq bo'lgan po'stin kiyib yurishgan. Mo'ynali nimcha ham ancha keng tarqalgan edi. Ayollar o'z kiyimlarida yorqin, guldor ranglardan foydalanar edi. Ro'mollari qizil va oq rangli edi. Ayollar kiyimlari uchun zig'ir, jun, shoyi, mo'yna va teri ishlatilar edi. Oddiy ayollarning ro'moli matodan, zodagon ayollarning ro'moli ipak-shoyidan qilinardi. Qadimda Rus' davlatida odatga ko'ra: bosh kiyim qizlar va ayollar bosh kiyimiga bo'lingan.

XIII asrda mo'g'ul-tatarlarning bostirib kelishi tufayli madaniyatning keyingi rivojlanishi 200 yildan ortiq muddatga to'xtab qolgan edi. Eng muhim rus knyazliklari parchalab tashlangan. Mo'g'ul-tatar bosqinchiligining eng og'ir zulm-istibdodni o'ziga olgan rus knyazliklari shu bilan tatar qo'shinlarining undan-da uzoqqa, g'arbga o'tishlariga yo'l qo'ymaganlar [6].

Rus xalqi hatto bosqinchilarning zulmi ostida bo'la turib, o'zining asriy milliy an'analari va urf-odatlarini, kostyumlarini saqlab qolishga uringanlar. Moskva Rus' davlatining davri - bu xalq tarixidagi mardona kurash davri, uning keskin rivojlanishi davridir. Moskva qadimiy Rus kostyumi, uning asosiy qismlarini saqlab qolgan holda, uning bichilishiga qator o'zgarishlarni kiritadi.

Eramizning 395-yiliga kelib Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'indi. G'arbiy qism qullar qo'zg'oloni sabab vayron bolib, bosqinchi german va gallar tomonidan egallangan bo'lsa, Sharqiy qismi o'z hukmronligi ostiga Misr, Siriya, Kichik Osiyo, Yunonistonni birlashtirib, Vizantiya deb atala boshladi [7].

Vizantiya antik Rimdan eski davlat shakllari va byurokratik apparatni meros qilib oldi. Biroq quldorlik sistemasi ishlab chiqarish vositalari taraqqiyotiga to'sqinlik qildi va uning o'miga yangi ijtimoiy munosabatlar - feodal munosabatlar vujudga keldi. Jamiyatning yetakchi dini xristianlik bo'lib, u katta iqtisodiy va siyosiy qudratga ega bo'lgan [8].

U Vizantiya madaniyati va san'atining shakllanishida katta va muhim o'rin tutdi. Vizantiya san'ati va V-VII asrlar estetik dunyoqarashida dawning butun qarama-qarshiliklari, xususan, inqirozga yuz tutgan eski davr va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq qarashlar aks etdi. Shu bilan birga bu davr san'atida antik davr, sharq an'analari va yangi xristian mavzularining ta'siri o'z aksini topgan. Bu davr san'atida me'morlik, mahobatli rang-tasvir, badiiy hunarmandchilik, xususan, mato ishlab chiqarish, kashta yetakchilik qildi. Vizantiya cherkovlarida saqlangan mozaykalar, ikona (ikonopis)lar o'z davri estetik ideali va insonlar libosi xususida ma'lumot beruvchi yagona vositalar hisoblanadi. Ularga san'atda inson tasviridan qaytish, ya'ni cheklanish, ramziylik xos. Insonlar tasviri shartli ko'rinish kasb etib, ular kanonlashtirilgan [9].

Xristian dinining chuqur ta'sirida bo'lgan Vizantiya estetikasi insonning hissiy dunyosini uning ruhiy dunyosidan ajratar, shu bilan birga ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yardi. Insonning hissiy dunyosi noma'qul hisoblanib, u gunoh hisoblangan. Shuning uchun butun umri davomida inson unga qarshi kurashishi kerak, degan aqida hukmronlik qilardi.

Bu davrda antik davr darajasiga xos insondagi go'zallik va uyg'unlik tushunchalari o'miga ruhiy go'zallik kirib keldi.

Tana turli ko‘rinishlarda niqoblangan. Rassomlarning butun qiziqishlari inson yuzining tasviriga qaratildi. Xususan, katta ko‘zlar, uzaytirilgan oval yuzlar, kichik og‘iz va keng peshona e‘tiborda bo‘ldi. Bosh ayol va erkakning ruhiy markazi vazifasini bajarib, tekis, shaklsiz tana tabiiy proporsiyalar va chiziqlardan ajralib, tiriklik sifatlarini yo‘qota boshladi. Vizantiya san‘atidagi qarama-qarshilik asketizmni e‘lon qilish bilan birga unda cherkov amallari bilan bog‘liq boylikka ruju qo‘yish xarakterlidir. Bu insonning kiyiraidagi qimmatbaho matolar, zargarlik buyumlari, shuningdek liboslardagi bezakdorlikda ko‘zga tashlanadi [10].

Vizantiyalik to‘quvchilar jun, ipak, parcha, shuningdek gilam to‘quvchiligida alohida shuhrat topgan edilar. Ularning san‘ati, xususan, VI asrga kelib ipak ishlab chiqarish rivoji bilan yanada kamol topdi. Vizantiya matolarining fakturasi turlituman bo‘lib, biroq unda, asosan, metall iplar yoxud qimmatbaho toshlar bilan bezaklangan og‘ir, qalin, noelastik matolar yetakchilik qilardi. Tilla bezakli parcha hamda yupqa va nafis metall listni eslatuvchi yaxlit oltinli altabas eng qimmatbaho matolar hisoblangan. Ulami asosan, quyma kashta bezak, hoshiya va naplesniklar uchun ishlatishgan. Imperatorlar va yuqori tabaqa vakillarining liboslari butun basti bilan mana shunday matolardan tayyorlangan [11].

Katta, aniq, yorqin, tekis rasmlar tana shaklini berkitishda alohida o‘rin tutgan. Hayvonlar (sherlar, fillar, ho‘kizlar, burgut, o‘rdak, tovus, grifonlar, fenikslar) tasviri doira, ko‘pburchak, romblar shakliga singdirilardi. Ular rozetkalar, o‘simliksimon naqshlar orqali birlashtirilardi. Ko‘pincha hayvonlarning figuralari bir-biriga yuzma-yuz joylashtirilardi. Rasmning hajmi ko‘p hollarda 30-40 sm diametr atrofida bolardi. Keyinchalik diniy naqshlar - xoch, Xristos, farishtalar tasvirlari paydo bola boshladi. Hoshiyalar uchun geometrik yoki o‘simliksimon bezaklar: palmetta, akanf barglaridan foydalanilgan. Matolardagi ranglar turli-tumanligi va ularning ranglaridagi turfalilik e‘tibomi tortadi [2].

Binafsha, uning to‘q qizil rang tuslari yuqori qo‘yilib, imperatorlar liboslari rangi hisoblangan. Bezaklar uchun yorqin ranglar, ya‘ni sariq, jigarrang, oq, qora, qaymoqrangdan foydalanilgan. O‘rta asrlarga kelib savdo-sotiq borasida oldi-berdilar amalga oshirila borishi sababli Vizantiya libosi qadimgi Rus libosiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Xristian dini tamoyillariga mos keladigan g‘ilof ko‘rinishli siluetlar, yopiq kiyimlar Yevropada uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi. Ajoyib tasviriy yechimlar bilan bezatilgan matolar yuqori tabaqa vakillariga kiyim tikishda namuna edi. Tunika, dalmatik, penula, mantiya kabi antik davr liboslari Vizantiya libosida sezilarli o‘zgarishlarga uchrab, o‘sha asr hayotiga moslashdi. Bu libosga yangicha yondashish, ya‘ni inson qomatining tabiiy shakllarini berkitishga qaratilgan edi.

O‘rta asrlar liboslari dekorativ bezaklarida quyidagi asosiy belgilarni ajratish mumkin:

- 1) Bo‘yin o‘mizi, kiyimning etaklari, yeng o‘mizlari atrofida kashtalar, merajka, qimmatbaho matolardan beykalar, festonlar, mo‘ynalar bilan bezash;
- 2) liboslarda yashil, qizil, ko‘k, sariq kabi yorqin ranglarni uyg‘unlikda qo‘llanilishi;
- 3) liboslarda hajmli bezaklar (lentalar, kantlar, ukparlar) bilan boy bezaklanishi;
- 4) matolarni oltin va kumush qo‘ng‘iroqchalar bilan bezash (o‘sha davr solnomalarida aytilishicha, ritsarlar janglarining birida bir ritsar libosi, poyabzali va bosh kiyimida birvarakayiga 500 qo‘ng‘iroqcha jaranglagan ekan);
- 5) qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezalgan qo‘mloqlarning paydo bo‘lishi;
- 6) libosda bezakni ta‘kidlash (libosning umumiy kompozitsiyasida) detalning o‘rni, bo‘lgan (masalan, lentalar) bilan bog‘lash. O‘rta o‘rta asrlar davrida zig‘ir tolasidan tayyorlangan mato (len), uyda kanopdan to‘qilgan mato (xolst), movut (sukno), mo‘yna, charm, sharq va Vizantiya shoyilari keng tarqalgan. Shaharlarda hunarmandchilikning o‘sishi to‘quvchilik taraqqiyotiga yo‘l ochdi [3].

Matolarning turlari, ularning sifati, shuningdek, xillarining oshishiga olib keldi. Natijada, shoyi, parcha, barxat, elsatik movut keng tarqaldi.

Ilk o‘rta asrlar davri ayollar libosi tuzilishida ham erkaklamiki singari o‘zgarishlar yuz berdi. O‘rta o‘rta asrlar davrida ayollar bir paytning o‘zida ikkita tunika kiyib yurishgan: uzun, tor yengli uzun va keng tunikalar hamda ustki, kalta va keng yengli, bo‘yi kaltaroq tunikalar.

Rangli naqshlar va bezaklar yoqa o‘mizlari, yenglar va etakning past qismini bezagan. X-XII asrlardan boshlab tanaga yopishib turadigan tor liboslar yaratila boshlandi. Qomatni ko‘rsatish maqsadida liboslarda tor kalta jiletlar paydo bo‘ldi. Ular ko‘krakni ushlab turish bilan birgalikda libosda o‘ziga xos bezak rolini o‘ynagan.

Uyg‘onish davri insonga boigan qiziqish, tabiatga va go‘zallikka bo‘lgan muhabbat, bilimga chanqoqlik, kashfiyotlar, tabiiy fanlarning, san’atning, adabiyotning gullab-yashnashi, san’atda yangi uslub – realizmning paydo bo‘lishi bilan xarakterlidir. Uyg‘onish davri realizmining antik realizm bilan umumiy jihatlari ham bor edi. Bular: aniq va mayin shakllar, proporsiyalarning uyg‘unligi, butunning aniq bolaklarga bolinishi, dekorativ va konstruktiv sistemaning o‘zaro bogliqligi, sof mo‘tadillik, ya’ni chegarani aniq his qilish. Lekin Renessans davri san’ati yangi, ya’ni jamiyat rivojlanishining yanayam murakkabroq davrida paydo bo‘ldi va o‘z davri san’atining yangi ko‘rinishi, ya’ni, awalambor, insoniyat ongi va e’tiqodiga ishonchni namoyon etadigan san’at edi [4].

Shu davrgacha Fransiya, Vizantiya, Sharq mamlakatlarining madaniyati ta’siri ostida boigan Italiya XV asrga kelib Yevropa mamlakatlari orasidagi modalami rasm qiluvchi davlatga aylandi. Vertikallik, uchli formalar, gotika davrining shartliligi gorizontali bo‘linish, shakllarga oddiy va tabiiy munosabat, ranglar mutanosibligining rang-barangligi, boyligi va yorqinligi tomonidan siqib chiqarildi. Uyg‘onish davrining estetikasi liboslardan inson tanasi tabiiy tormasi bilan toliq mutanosib bo‘lishni, inson tanasi go‘zalligi propozitsiyalarini yaqqol namoyon etishi, bir so‘z bilan aytganda insonning “ikkinchi tanasi” bo‘lishini talab qilar edi. Bunda ba’zi bir qismlarning ochiq bo‘lishi shartli ravishda nazarda tutilar edi. Italiya modasini yaratishda buyuk rassomlar qatnashganlar. Xususan Benvenuto Chellini, Chezare, Vechellio va boshqalar matolami imzolashar, zargarlik buyumlari, ipak to‘rlarga naqshlar yaratar edilar.

Kolet - tik yoqali, tor va kalta, belgacha yoki bo‘ksagacha tushib turuvchi, old qismida tugma yoki tasma bilan qadaladigan ustki kiyim. Kolet ko‘krak, bel, bo‘ksaga yopishib turadigan kiyim turi bo‘lib, u beldan ajratilgan. Bo‘yin o‘mizi turlicha bezaklangan. Yoqasi baland va tik, chuqur, oval yoriqlardan ichki ko‘ylak ko‘rinib turgan. Uning yangi o‘mizga tikilmagan, balki alohida o‘rinlarda (o‘mizning tagi yelka qismi, yonidan) chatib qo‘yilgan. Bu holat harakatlar erkinligini ta’minlashda yordam bergan. Yengning yelka qismi va tirsaklar kesib yoriqlar qoldirilgan.

Barcha yoriqlardan erkaklar icki ko‘ylagining ko‘rinib turishi maqsad qilingan. Keyinchalik bu yoriqlar dekorativ matolardan qilingan bezaklar – shishib turadigan buflar bilan bezaklangan. Paypoqli ishton elastik matodan bo‘lib oyoqqa yopishib turgan. XV asrda uning har ikki bo‘lagi yuqori qismidan va yonidan tugmalar ila qadaladigan yoki shnur bilan tortib qo‘yiladigan gulfik orqali birlashtirilgan. Paypoqli ishton koletga maxsus teshiklar orqali shnurlar yordamida mahkamlangan. Paypoqli ishton va kolet orasida ichki ko‘ylak ko‘rinib turgan [6]. Uzoq vaqt davomida miparti modasi saqlanib qoldi: bunda ishtonning bir oyog‘i sidirg‘a, ikkinchisi yo‘l-yo‘l bo‘lgan.

XV asr florensiyalik ayollar libosi yumshoq, tabiiy qomat chizgilarini ko‘rsatib tumvchi, tabiiy proporsiyalar yoki bel chizig‘i old tomondan biroz ko‘tarilgan, beldan bo‘ksaga pastga qarab yengil kengayib borgan voronka formasidagi yubka va h.k. ko‘rinishida bo‘lgan. Kottning bichimi odatda beldan ajratilib, ko‘krakda yopishib tumvchi, keng va katta burmali yubkadan iborat. Lif old tomondan kvadrat, orqadan uzaytirilgan dekolte. Yenglar xuddi erkaklamiki singari ko‘ylakka turli uslubda biriktirilgan. Ayollar ust kiyimi simara 3 qismdan: uzaytirilgan keng yeng, bo‘yin taxlamalar bilan boyitilgan orqa qism, va biroz kaltaroq old qismlardan iborat. Simaraning yon choklari tikilmas, faqat old tomondan belda belbog‘ bilan mahkamlanardi. Bu kabi bichim simarani turli ko‘rinishlarda burmalashga imkon berardi. Ayollar duxobadan tikilgan ko‘ylak kiyishardi. Bel chizig‘i ko‘krakdan biroz pastroqda bo‘lib, yubkalari uzun shleyfli boigan. Lifning yoqa o‘mizi old tomondan to‘rtburchak shaklida, orqa tomondan esa uchburchak shaklda bo‘lgan. Bundan maqsad bo‘yinni uzunroq ko‘rsatish edi. Ko‘pincha, ustki ko‘ylak lifining oldi qirqilib shnurovka qilingan. Yenglari esa xuddi erkaklar libosi kabi turli usullarda kiyimga ulanar edi. Bu davr Florensiya ko‘ylagi oval yoki uchburchak shaklga kiradi. Yubkaning kengligi bo‘yga nisbatan olganda 1:2, lifning uzunligi yubka uzunligining 1:3,3 hajmida.

Siluetning chiziqlari yumshoq va aylana shaklida

XVI	asr venetsiyalik ayol libosida o'sha davr estetik go'zallik
ideali bo'lmish dabdabaga erishish, hashamatliligini kuzatish mumkin.	shakllar bezakdorligi

Ispan libosi shakllariga ham XV-XVI asr Ispaniya san'ati va madaniyatining barcha turlariga bo'lgani kabi ko'pgina tarixiy va ijtimoiy faktorlar ta'sir ko'rsatgan. Ularning asosiylari – jangovar ritsar ideali, ispan qiroli saroyidagi qat'iy etiket va katolik cherkovining qoidalaridir. Aynan ushbu faktorlar ispan libosining estetikasidagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu bir tomondan Renessansga xos bo'lgan tabiiy formalar va figuralar proporsiyasini bildirish bo'lsa, ikkinchi tomondan - tanani berkitish, ya'ni badanni ko'rsatib yurishni ma'n qilish edi. Ispan libosida Yevropa libosida ilk bora karkaslar qo'llangan. Erkaklar libosida bu - paxta, qipiq, ot yolidan qavilgan taxlamali astarlardan iborat. Ular deyarli barcha ust kiyimlar ostida qo'llanilgan [7].

Ayollar libosida esa korsetlar paydo bo'ldi. Korsetlar – tol navdalaridan yoki metall setkalardan usti va ostidan paxta bilan qoplanib, mato bilan sidirilib, qavib yasalgan. Ot yolidan qilingan ushbu astar ayol ko'kraklarining tabiiy bo'rtmasini yopib turishga xizmat qilgan. Shu bilan birga korsetga mahkamlangan ingichka yog'och yoki metalldan qilingan plastinka yordamida ayollar qomiga shakl berilib, belning tor ko'rinishga erishilardi.

Ayollar gavdasining past qismini voronka shaklidagi ikkinchi metal konus yubka – tortilgan vertyugaden yopardi. Ayollar va erkaklar libosidagi yelka chokiga yopishtirilib, yenglar ustiga o'atilgan valiklar yordamida yelka kengaytirib ko'rsatilardi. Futlyar (g'ilof) shaklidagi, harakatlami, xususan, boshni aylanishini cheklovchi va shu bilan birga doim tik tutishga imkon yaratuvchi karkasli libosning bo'yin qismiga briji yoqa o'atilgan edi. Ispan libosida erkaklarning uzun ko'ylaklari butunlay yo'qolib (faqat formalarda saqlanib qoldi), ayollar va erkaklar libosi o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'ldi [8].

G'arbiy Yevropa ayollar libosi ham avval Italiya, keyinchalik Ispaniya ta'siri ostida rivojlandi. Ammo Fransiyada ayollar go'zalligi o'zgacha tushunilgan. Italianlarning toMaligi, ispanlarning qotma va chayirligi fransuz ayollarining nazokatli didini qondirmagan. Karkas libosning piramidasimon shaklidan foydalangan holda, ular o'zlarining proporsiyalari va ranglar jilosini yaratganlar. Vertyugaden shakli Ispaniyani singari voronkasimon emas, balki barabansimon, silindsimon bo'lib, yubkalar esa ispanlamikidan farqli o'laroq, zich burma qilingan. Yubkaning uzunligi ispanlamikidan kaltaroq, ya'ni to'piqqacha bo'lgan.

Dekolte o'yig'i renessansga xos keng va chuqur qirqim shaklida bo'lib, u vstavka (qo'shimcha) va qattiq yelpig'ichsimon to'rli yoqa bilan bezalgan. XVII asr ziddiyatlar va kurashlarga to'la o'tish davri bo'lib, tarixda Yevropa feodalizmini tugallab, yangi kapitalistik munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Yevropa qit'asida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy hayotda dinning hukmronligiga qarshi harakatlar boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Gollandiya Yevropaning eng yirik mustamlaka va savdo davlati bo'lgan bolsa-da, biroq XVII asr oxirlarida u o'z o'mini Angliya va Fransiyaga bo'shatib berdi. Chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglik Ispaniya va Italiyani qamrab oldi. Um-fan taraqqiyoti, jug'rofiy kashfiyotlar, yangi qit'alarning kashf etilishi, dengiz yollarining o'zlashtirilishi xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning jadallashuviga keng imkoniyatlar yaratdi [9].

Ushbu holat jahon xalqlari ijtimoiy hayotining faollashuviga olib keldi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot birmuncha tezlashdi. XVII asr badiiy madaniyati Italiya, Ispaniya, Fransiya, Gollandiya davlatlarida milliy badiiy maktablarning ochilishi va ularning gullab-yashnashi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga bu davr san'atidagi uyg'onish davridan keyingi, umumiy badiiy uslub barokko uslubi bilan ham xarakterlidir (barokko - italyanacha –g'alati, serhasham ma'nolarini anglatadi).

Barokko uslubi XVI asr oxirida Italiyada paydo boigan va Yevropaning ko'pgina mamlakatlarining me'morlik, rassomlik, amaliy-bezak san'atida keng tarqalgan. Barokkoda yaxlitlik, cheksizlik va dunyomng doimiy o'zgamvchanligi, uning dramatik murakkabligi haqida yangi fikrlar paydo boidi. Unga zamin va samoning, borliq va xayolot, mh va tana, nazokat va qo'pollik, aslzodalik va xalqchillikni qarama-qarshi qo'yish xosdir. Aynan mana shu qarama-qarshiliklar zaminida taraqqiyot, ehtiros, nur va soya kontrasti, material va fakturalaming masshtabiligi, ritmi, mahobati, bezagi, namoyishi, hashami dunyoga kelardi. XVII asr saroy maishiy hayotining tuzilishi, insonlar libosi va tashqi qiyofasiga barokko uslubi bilan birga klassizm badiiy yo'nalishi ham katta ta'sir ko'rsatdi [10].

Uning asosiy qoidalari go'zallik, haqiqat, tafakkur, aql va hissiyotning uyg'unligi, qonuniyat, mantiqiy aniqlikni bir-biri bilan bog'lar edi. Bu san'atda shakl va chiziqlar geometriyasida, kengliklar aniqligida, libosda karkas shakllarining galdagi mukammalashuvida, inson tanasining me'yoriy qoliplarga moslashuvi, konstruksiyalaming aniqligi va maqsadliligida ko'zga tashlanadi. Klassitsizmning ta'siri uning vatani Fransiya va Angliyada ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanadi. Me'morlik singari tasviriy san'atda ham barokko va klassitsizm elementlari bir-biriga qaramaqarshi bo'lsa-da, ular XVII asr libosida mushtaraklikda namoyon bo'ldi.

XVII asrdagi yorqin me'moriy haykallar, ko'zgu devorlar bilan bezalgan dabdabali saroylar, villalar, cherkovlar, og'ir va mahobatli, qizil va qora daraxtdan yasalgan, kumush va bronza bilan naqshlangan mebellar, inson libosi, o'zini tutishi, qiyofasi bilan birgalikda aniq bir makonni yaratadi va shu bilan birgalikda insonni yaxlit bir ko'rinishini namoyon etar edi.

Bu davr erkaklar libosida kata o'zgarish sodir bo'ldi. Bunga asosiy sabab ushbu davrga qadar alohida e'tirof etib kelingan ritsarlikka xos qahramonlik o'z o'mini aristokratlikka bo'shatib berganida edi. Ritsar erkaklar bu davrga kelib asta-sekin saroy aristokratiga aylandi. Yuqori tabaqa erkaklarini majburiy tarzda raqsga, musiqaga o'rgatish, uning qiyofasiga harakatchanlik (plastiklik), bejirimlikni beradi. XVII asr erkagi nafaqat gavdasi ko'rkam, bahodirona, shu bilan birga, u xonimlar bilan xushmuomalada bo'la olishi kerak. XVII asrdan boshlab Fransiya Yevropada modani targ'ib etuvchi davlatga aylanadi va bu davlatning ideal erkagi sifatida Lyudovik XIV - «quyosh qirol» - baland bo'yli, to'g'ri yuz tuzilishli, qalin va uzun oq-malla sochli inson qiyofasi olinadi. Qirol mohir raqqos, chavandoz, kamonchi va ovchi edi. Ayollaming ideal go'zalligi - viqor, dabdabalilik, yoqimlilik. Ayollar qomatida baland bo'y, "oqqush bo'yin", orqaga tashlangan yelkalar, ingichka bel, keng bo'ksa, to'lqinsimon uzun soch e'tirof etilgan.

Bu davr erkaklar libosida kata o'zgarish sodir bo'ldi. Bunga asosiy sabab ushbu davrga qadar alohida e'tirof etib kelingan ritsarlikka xos qahramonlik o'z o'mini aristokratlikka bo'shatib berganida edi [11].

Ritsar erkaklar bu davrga kelib asta-sekin saroy aristokratiga aylandi. Yuqori tabaqa erkaklarini majburiy tarzda raqsga, musiqaga o'rgatish, uning qiyofasiga harakatchanlik (plastiklik), bejirimlikni beradi. XVII asr erkagi nafaqat gavdasi ko'rkam, bahodirona, shu bilan birga, u xonimlar bilan xushmuomalada bo'la olishi kerak. XVII asrdan boshlab Fransiya Yevropada modani targ'ib etuvchi davlatga aylanadi va bu davlatning ideal erkagi sifatida Lyudovik XIV - «quyosh qirol» - baland bo'yli, to'g'ri yuz tuzilishli, qalin va uzun oq-malla sochli inson qiyofasi olinadi. Qirol mohir raqqos, chavandoz, kamonchi va ovchi edi. Ayollaming ideal go'zalligi - viqor, dabdabalilik, yoqimlilik. Ayollar qomatida baland bo'y, "oqqush bo'yin", orqaga tashlangan yelkalar, ingichka bel, keng bo'ksa, to'lqinsimon uzun soch e'tirof etilgan.

Asr oxiriga kelib yo'l-yo'l va katak matolar paydo bo'ldi. To'r, gipyur, to'qilgan va bosilgan matolami eslatuvchi naqshli to'qimalar keng tarqalgan. Ular yoqalar, manjetlar, fartuklami hatto paypoqlar va poyabzalni ham bezagan. XVI asrda Ispaniyada paydo bo'lgan karkasli libos Yevropa libosida XVII asrga qadar saqlandi. Biroq boshqa vositalar proporsiya va masshtabni yangi sxemalar asosida yaratishga imkon yaratdi. Libos tarkibidan qattiq karkas yubka chiqib ketdi. Shuningdek, erkaklar libosidagi kulguli astar qism olib tashlandi. Uning chiziqlari deyarli tabiiy, harakatlar uchun qulayligi, shaklining bezakdorligi bilan xarakterlanadi.

Matolar, toʻrlar, lentalar, va boshqa bezaklaming koʻpligi liboslar bezagi uning konstruktiv yechimi ustidan hukmronligiga sabab boldi. Shunday boʻlishiga qaramay, asming birinchi yarmida liboslar konstruksiyasi va bezagi ajralib turadi. Modelyerlar va tikuvchilar tanaga maʼlum bir sxematik shakllar berish uchun juda aniq va oqilona konstruktiv yechimlar taklif etib, ulami amalga oshiradilar. Xususan, ayollar libosida kompozitsion chiziqlar yordamida balning juda nozik, yelkaning tor koʻrinishi tasavurini uygʻotishga erishildi.

Korset yordamida tortib qoʻyilgan tors, shishirilgan keng yubka va balon shaklidagi yenglar bilan kontrastga kirishadi. Yelkaning orqa qismidagi relyef liniyalari ushbu tasavvurni yanada kuchaytiradi. Bu davr erkaklar kiygan liboslaming asosiylari XVI asrda paydo boʻlgan deb hisoblash mumkin. Bular - koʻylak, ishtonlar, kurtka, ust kiyim, bosh kiyimlar, poyabzal, ich kiyim. Kiyimlar formasi, shakli, baʼzi qismlari davr davomida bir necha marta oʻzgargan. Asr boshida erkaklar koʻylagi ichki kiyim va ustki kiyimning bir qismi vazifasini bajargan. Asming ikkinchi yarmiga kelib koʻylaklar turi koʻpaydi, oq yupqa matodan tikilgan tor ichki koʻylak va xuddi shu matodan tikilgan ustki keng koʻylaklar paydo boʻldi. Libosning dekorativ bezagida bu muhim rol oʻynadi, yaʼni yenglaming kesimlaridan ichki koʻylak koʻrinib turar edi [2].

Uning manjetlari va yoqalari gofrelangan toʻrlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, butunlay toʻrdan qilingan yoki chetlari toʻr bilan bezalgan batist katta qoplama yoqalar bashang hisoblangan. Libos tarixida ular Van Deyk yoqasi deb ataladi, chunki Van Deyk portretlarining aksariyat qismi libosning bu ifodali detali bilan chizilgan.

Kamzol kalta qaytarma yoqali koletga aylandi. Tashlab yuriladigan kiyimlarning oʻmiga kalta, moʻyna bilan sirlangan tik yoqali plash kiyish odat tusiga kirdi. Koletlar shakl va bezagiga koʻra turli-tumandir. Asr boshida - koletlar kalta, tanaga yopishib turadigan mayin shakllarda, past tomonga qarab kengaytirilgan. Yuqoridan ular bir nechta tugmalar bilan qadalgan. Koletning old tomoni etaklari pastga tomonga borib ajraladi. Koletlar bortlar va oʻmiz boʻylab tugmalar, bantlar bilan, yenglarda esa boʻylama kesiklar bilan bezalgan. Koletning old oʻmizi uchburchak shaklini olib, keng yenglari qavilib, manjetli qilindi. Uni pantolonlar bilan kiyishgan.

Pantolon - uzunligi boldirgacha boʻlgan tor tekis ishton boʻlib, uni yon choklari boʻylab kashtadoʻzlik bilan, past qismini esa toʻr burmali qoʻshetaklar bilan yoki tasmali choklar bilan bezalgan. Pantolonlar ostidan tor paypoq-ishton kiyilgan. Asr oxiriga kelib yangi saroy kiyimi - jjustokor paydo boʻldi. Jjustokor - harbiylar kiyimi formasidan olinganini atamaning oʻzidan ham bilish mumkin. Jjustokor qirol va yuqori tabaqa vakillari kiyimi boʻlib, bu kiyim bel chizigʻidan sharf-belbogʻdan pastga qarab kengaytirilgan, mayda tugmachalar va petlyalar bilan qadaladigan tor, tizzagacha boʻlgan uzunlikdagi kiyim turidir.

Yenglarining yuqori qismi tor boʻlib, u pastga qarab kengaytirilgan va keng qaytarma manjetga ega. Ranglar yechimi yorqin va jilvador, oltin va kumush bilan kashtalangan. Jjustokor yoqasiz boiib, uning oʻmini oq matodan uchlariga toʻr oʻmatilgan galstuk egallagan. Jestokorda dastlabki kesma choʻntaklar paydo boʻldi. Ular pastda joylashgan. Uning tagi dan kamzol - yengsiz va yoqasiz, jjustokor bilan bir xil bichimdagi kiyim kiyishgan. Kamzol jjustokordan 10- 15 santimetr kalta boʻlib, ularning ranglari bir-biriga kontrast qilib tanlangan.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.
2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARINING QO 'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, 3(4), 506-514.
4. qizi Tillaboyeva, G. S. (2023). FORMATION STAGES OF ANCIENT PERIOD DRESSES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
5. qizi Tillaboyeva, G. S. TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI.
6. Vasiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
7. Vasiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 176-182.
8. Vasiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.
9. Vasiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
10. Vasiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
11. KHALIMBOYEVA, F., & VOSILJONOV, A. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI NAZARIY O'RGANILISHI. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(5), 94-98.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz